

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyul

## RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 78662,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 133,2 % ni tashkil etdi.
- Transport xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 30,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2399,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.


Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 8,1 foizga oshishiga olib keldi. 2018 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 78662,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush transport xizmatlari (30,1 %), savdo xizmatlari (27,5 %), moliyaviy xizmatlar (14,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,9 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi,%



2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (36,0 %), moliyaviy xizmatlar (33,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (16,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (14,7 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati – 107,2 %, moliyaviy xizmatlar - 135,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari—116,3 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 114,6 % ni tashkil etgan.

Bugun respublikamizda transport mustaqilligi ta'minlangan va respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratilgan. Shu bilan birga, transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omili sifatida xizmat qilmoqda.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (48,7 %) tashkil etadi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari jami transport xizmatlarining 18,6 % ni tashkil etadi.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Temir yo'l transportida ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmi 14,3 % ni tashkil etadi.


Yuklar va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 11,0 % ga yetdi.

Yordamchi transport faoliyati bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 7,4 % ni tashkil etadi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida eng katta ulush Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,7 %) va Samarqand (11,8 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (2,6 %), Navoiy (2,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,3 %) qayd etildi.


**2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida avtomobil  
transporti xizmatlarining ulushi**  
(jami hajmga nisbatan), %



Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining oshishi Surxondaryo (147,4 %), Jizzax (147,3 %), Navoiy (141,5 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (135,8 %) kuzatildi.


### 2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %



Moliyaviy xizmatlar bo'yicha boshqa hududlarga nisbatan eng past o'sish sur'atlari Xorazm (112,9 %), Buxoro (118,8 %), Andijon (125,2 %), Qashqadaryo (125,8 %), Farg'ona (126,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlarning ulushi ustunlikka ega (88,5 %). Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ichida eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik xizmatlari (96,6 %) tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar orasida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng katta ulushni Qashqadaryo va Sirdaryo (91,3 %), Surxondaryo (91,1 %), Samarqand (91,0 %) viloyatlari egalladi.

Eng past ko'rsatkich Buxoro viloyatida (84,8 %) qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish, o'qitish uslubiyatiga innovatsion yondashuvlar ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmini 2213,4 mlrd. so'mga oshirish imkonini berdi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida hududlar kesimida ko'satilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi, %**



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlarining eng yuqori ulushi Toshkent shahri (42,2%), Farg'ona (7,9 %), Samarqand (7,7 %), Andijon (7,0 %) viloyatlarida kuzatildi.

Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (1,6 %), Navoiy (2,4 %), Jizzax (2,5 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlarida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (83,2 %) ustunlik qiladi.


Yashash xizmatlari ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibi, %



Toshkent shahridagi ushbu turdagi xizmatlar umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ulushi 39,3 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlar orasida ushbu turdagi xizmatlar ulushining taqqoslanishi, %





**2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>78662,3</b>	<b>108,1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2355,7	107,9
viloyatlar:		
Andijon	4309,8	106,6
Buxoro	3431,5	106,1
Jizzax	1685,6	112,0
Qashqadaryo	3759,9	106,4
Navoiy	2062,4	112,4
Namangan	3281,1	106,2
Samarqand	5298,3	106,9
Surxondaryo	2970,2	108,4
Sirdaryo	1026,9	107,2
Toshkent	5910,1	104,0
Farg'ona	4888,5	106,3
Xorazm	2307,9	105,8
Toshkent shahri	25235,7	113,3

Hududlar orasida eng katta hajm Toshkent shahri (25235,7 mlrd.so'm) va Toshkent viloyatiga (5910,1 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajm Sirdaryo (1026,9 mlrd.so'm) hamda Jizzax (1685,6 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (113,3 %), Navoiy (112,4 %), Jizzax (112,0 %), Surxondaryo (108,4 %) viloyatlarida qayd etildi.


### 2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (104,0 %), Xorazm (105,8 %), Buxoro (106,1 %), Namangan (106,2 %), Farg'ona (106,3 %) va Qashqadaryo (106,4 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar orasida Toshkent shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Toshkent shahrining ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,1 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,7 %), Farg'ona (6,2 %) va Andijon (5,5 %) viloyatlari tashkil etadi.


### 2018 yil yanvar-iyul oylarida respublikada hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan), %



Hududlar orasida eng past ulushlar Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2399,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida – 10194,6 ming so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati 11,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida – 1175,8 ming so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etdi.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining ortishiga, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari kabi xizmatlar ulushining oshishi, ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar tarkibida yuqori ulushga ega xizmat turlarini taqqoslanishi, %




Hududlar orasida eng katta ulush Toshkent shahrida moliyaviy xizmatlar (55,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (49,4 %) da qayd etildi. Biroq savdo xizmatlari faqat 32,1 % ni tashkil qiladi.

Toshkent viloyatida savdo xizmatlari (9,0 %), moliyaviy xizmatlar (5,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha bu ko'rsatkich kichik - 2,8 % kuzatildi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 205,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 66,5% ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %*



Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi  
boshqarmasi

Mas'ul:

Q.Berdiqulov

(71) 230-80-59